

## MEXNAT JARAYONIDA AMALIYOTCHI PSIXOLOGLARNING SUB'EKTIV KASBIY YETUKLIGINING SHAKLLANISHI

*To'raxonova Mohinur Abdunazar qizi*

*TerDPI psixologiya kafedrası o'qituvchisi turaxonova@mail.ru*

Bu yorug' olamda eng oliy xilqat hisoblangan Insonni o'rganish, uni tarbiyalash, unga alohida xizmat ko'rsatish muammosi butun insoniyat paydo bo'lishining ibtidosidan boshlab intihosiga qadar o'ziga xos ob'ktiv va sub'ektiv imkoniyatlar ko'lami bilan bog'liq ravishda namoyon bo'lib kelayotganligini bugungi hayotning o'zi tasdiqlamoqda. Zero, insonni bilish va uning tashqi (real) va ichki (ideal) olamiga adekvat ta'sir ko'rsatish va shu ta'sirlar orqali uni boshqarish mumkinligi aniq bo'lsa-da, bu jarayonda turli xil ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy va ma'naviy manfaatlar mushtarakligiga ham alohida e'tibor berishga to'g'ri keladi. Chunki inson taraqqiyoti va faolligi, eng avvalo, uning ijtimoiy manfaatlari, mafkuraviy qarashlari sotsialintellektual salohiyatiga ta'sir etuvchi omillar bilan belgilanadi va baholanadi. Qolaversa, insonning shakllanishi unga xizmat ko'rsatuvchi tizimlarning muvaffaqiyatli ishlashi mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-amaliy islohotlarning hosilasi hisoblanadi. Shu ma'noda psixologik xizmat fani o'zining shakllanishi va tuzilishiga ko'ra faqat insonga va uning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik taraqqiyotiga bevosita xizmat qilishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, bugungi ilmu-fan taraqqiyoti bilan bog'liq innovatsion yondashuvlarga keng ko'lamdagi imkoniyatlarning ochib berilishi har bir innovatsion g'oyalarni targ'ib qiluvchi insonga psixologik xizmat ko'rsatish tizimini yanada mukammallashtirishni taqozo etmoqda. Bunga javoban bugungi kunda barcha mehnat va ta'lim muassasalarida, mahallalardagi aholining turli qatlamlarida psixologik xizmat tizimini joriy etish uchun "Nizom"lar ishlab chiqilmoqda.

Ushbu "Nizom"lar asosida faoliyat yurituvchi amaliyotchi psixologlarga ham nazariy-ilmiy, ham amaliy-uslubiy bilimlar va qo'llanmalar kerak bo'ladi. Bugungi psixologiya fani taraqqiyoti an'analari bilan bog'liq insonning iqtidorini, uning jamiyatdagi ijtimoiy faolligi va ijtimoiy tabiatidan ajratib bo'lmaydi. Shu nuqtai nazardan, inson omillarini va uning jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarini to'g'ri va samarali boshqarish jarayoni jamiyatga va jamiyat a'zolariga psixologik xizmat ko'rsatish muqarrarligini talab qiladi. Vaholanki, iqtisod, huquq, etika, etnografiya, tarix, sotsiologiya va shu kabi barcha fanlarning o'zaro mustahkam hamkorligi natijasida inson psixologiyasining amaliy muammolari hal etilishi lozim. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'sib kelayotgan yosh, bunyodkor avlod kelajagini har tomonlama takomillashgan va ijtimoiy taraqqiyot talablariga to'la-to'kis javob bera oluvchi ta'lim tizimining muvaffaqiyatli tatbiqisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Ta'limning muvaffaqiyati esa tashkil etilgan o'quv faoliyatining har bir o'quvchi shaxsiga, uning ijtimoiy taraqqiyotiga qo'shgan hissasi bilan belgilanadi. Bu mas'uliyatli vazifani, ayniqsa, bugungi kunda psixologik xizmatsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Qolaversa, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda, o'quv topshiriqlarini takomillashtirishda, o'quvchilarni u yoki bu kasbga yo'naltirishdagi o'ziga xos individual psixologik xususiyatlarini va qiziqishlarini aniqlashda, ularning o'z-o'zini anglashlarida, o'quv jarayoni, o'quvchilar jamoasi, o'quvchi-o'qituvchi faoliyati bilan bog'liq barcha muammolarni bartaraf etish yo'llarini izlashdagi psixolog olimlarning bugungi yutuqlari haqida yetarli dalillar mavjud. Masalan, I.V.Dubrovina tadqiqotlarida maktabda psixologik xizmatni tashkil etishdagi nazariy va amaliy jihatlarining asoslanishi, L.I.Bojovichning o'quvchi shaxsi va uning maktab yoshidagi shakllanish bosqichlarini psixologik tasniflovchi empirik ma'lumotlari, A.G.Asmolovning o'quvchi faoliyati va ustanovka uyg'unligini izohlab beruvchi tadqiqotlari, D.I.Feldshteynning ontogeneza rivojlanuvchi shaxs ijtimoiy taraqqiyotining psixologik qonuniyatlarini ochib berishga qaratilgan qator ilmiy-tadqiqiy ko'rsatmalari, Ye.A.Kli- 104 movning o'quvchini kasbga yo'naltirishdagi individual uslubni o'zida mujassamlashtirgan psixologik ishlanmalari, V.S.Merlanning o'quvchi shaxsidagi individual va sotsial tipik xususiyatlar psixologiyasini izohlab berishga qaratilgan asarlari, E.G.G'ozievning ta'lim muassasalaridagi psixologik xizmat vazifalarini qayd etishga bag'ishlangan ko'rsatmalari, M.G.Davletshinning O'zbekistondagi psixologik xizmatning bugungi holati va vazifalarini talqin qilishga qaratilgan ilmiy-amaliy fikr-mulohazalari, G'B.Shoumarovning Xalq ta'limi tizimida psixologik xizmatning joriy etilishi bilan bog'liq yangiliklar, muammolar va yechimlarga bag'ishlangan nazariy-ilmiy va ijtimoiy-amaliy ahamiyatga molik fikr-mulohazalari, Sh.R.Barotovning ta'limda psixologik xizmat amaliyotiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot natijalari, B.R.Qodirovning O'zbekistondagi iqtidorli va iste'dodli bolalarni tanlash va tarbiyalashga qaratilgan qator nazariy-ilmiy va amaliy-uslubiy asarlari shular jumlasidandir.

Ayniqsa, bugungi kunda o'zbekistonlik psixologlar guruhi tomonidan "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimida psixologik xizmat, xalq ta'limi tizimida ishlaydigan psixologlarning malakasini oshirish va ularning attestatsiyasi haqidagi Nizom"ning ishlab chiqilishi va uni Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanishi O'zbekistondagi psixologik xizmat tizimining rasmiy tarzda "jonlanishi" va taraqqiy etib borishi uchun muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Tabiiyki, ushbu "Nizom" ta'lim muassasalarida tatbiq etilajak psixologik xizmat tizimining asl maqsadi, mazmuni, mohiyati, ahamiyati, vazifalari va asosiy yo'nalishlari haqida yetarlicha tasavvur hosil qilish va shu tasavvur asosida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish uchun o'ziga xos qo'llanma va yo'llanma bo'lib

xizmat qiladi. Xuddi ana shu "yo'llanma" asosida bugungi kunda Respublikamiz miqyosida talaygina ta'lim muassasalarida psixologik xizmat tizimi tashkil etilgan.

Darhaqiqat, Respublika xalq ta'limi tizimida psixologik xizmatning joriy etilishi, dastavval, o'quvchi shaxsini har tomonlama tushunib tahlil qilish va rivojlantirish borasida o'ziga xos yuksak ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Zero, hamma 105 rivojlangan davlatlarda va hamma zamonlarda ham inson omilidan unumli foydalanish muammosi eng dolzarb muammo hisoblangan. Ushbu muammoni bartaraf etish esa eng birinchi navbatda o'quv maskanlaridagi har bir o'quvchi shaxsiga, o'quvchilar jamoasiga bo'lgan psixologik yondashuvning mazmuniga, mohiyatiga va saviyasiga ko'p jihatdan bog'liqdir. So'nggi yillarda mamlakatda psixologiya sohasida pedagog kadrlarni tayyorlash hamda amaliyotchi psixologlar faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid bir qator ishlar amalga oshirildi.

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tizimida 2 503 nafar, xalq ta'limi tizimida 14 272 nafar pedagog-psixolog kadrlar faoliyat olib bormoqda.

Respublikaning 10 ta oliy ta'lim muassasasida «Psixologiya», 19 ta oliy ta'lim muassasasida «Pedagogika va psixologiya» ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha 5 717 nafar talaba tahsil olmoqda. Ushbu sohada qabul kvotalari keskin oshirildi, xususan 2018/2019 o'quv yilining o'zida 2 665 nafar talaba o'qishga qabul qilindi. 2017 yildan boshlab profilaktika inspektorlari va jamoatchilik vakillarining ta'lim muassasalarida yoshlar bilan ishlash tizimi yo'lga qo'yilib, 5 696 ta umumiy o'rta ta'lim muassasasida profilaktika inspektorlari, 5 328 ta umumiy o'rta ta'lim muassasasida esa mahalla vakillarining xonalari tashkil etildi. birinchidan, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida yoshlarning psixologik holati diagnostikasiga ixtisoslashgan psixolog kadrlar hamda tashkilotlar mavjud bo'lsada, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarishni amalga oshiradigan yagona tuzilmaning mavjud emasligi psixologik xizmatlar faoliyati samaradorligining past darajada qolishiga ta'sir ko'rsatmoqda. xorijiy tajribadan kelib chiqib,

✓ oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga ijtimoiy psixologiya, yoshlar psixologiyasi, psixologik xizmat faoliyatini boshqarish, oilaviy konsultatsiya va kouching kabi bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini kiritish;

✓ respublikaning chekka hududlarida amaliyotchi psixologlarga bo'lgan ehtiyojni hisobga olgan holda 2019/2020 o'quv yilidan boshlab psixologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha talabalarni davlat granti asosida maqsadli qabul qilish;

✓ 2019/2020 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim muassasalarida psixologiya ta'lim yo'nalishlarining o'quv rejalarida malakaviy amaliyot davomiyligini 8

haftadan 15 haftaga oshirish;<sup>1</sup> kabi bir qator ustuvor vazifalar asosiy vazifa sifatida belgilab olindi. Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, Amaliyotchi Psixolog mutaxassisning shakllanishi faqatgina chuqur va keng doiradagi bilim, ko'nikma va malakalarga, kasbiy tajriba va maxoratga ega bo'lish bilan cheklanib qolmaydi, balki tarbiyalanganlik, yetuk shaxs taraqqiyoti ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxs tomonidan shaxsiy va ijtimoiy maqsadlar, pozitiv kasbiy motivatsiyaning shakllanishi, ijtimoiy va kasbiy mas'uliyat, ishchanlik qobiliyati va mehnatga tayyorlik, tashabbuskorlik va ijodkorlik, mehnatdan qoniqqanlik, mehnat sub'ektining yetukligini anglatuvchi boshqa xususiyatlarni rivojlantirishga intilishini aniqlashtiruvchi faoliyat mazmuni va natijalari anglanilgandagina, maxoratning kasbiy komponentlari egallanadi, rivojlantiriladi va faollashtiriladi. Kasbiy yetuklik shaxsiy ideallar, ustanovkalar, qadriyatlar, xayot va faoliyat mazmunini ijtimoiy, psixologik muhitning kasbiy talablari bilan muvofiqligida aks etadi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА КОМПЕТЕНЦИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО САМОСОЗНАНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ” **Вестник интегративной психологии** // Журнал для психологов, Вып. 31. Часть 2. /Под ред. В.В.Козлова, Ш.Р. Баратова, М.Н.Усмновой. – Бухара - Ярославль: МАПН, 2024. – с.
2. “Bo'lajak pedagoglarda kreativ o'z-o'zini boshqarishni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari” Musinova Ruxshona Yunusovna Toshkent.2019.
3. Kizi, M. T. A. (2022). Solutions to the problem in the development of intellectual property of modern educational technologies.
4. To'raxonova, M. (2023). BO 'LAJAK O 'QITUVCHILARNING KASBIY O'ZLIGINI ANGLASHINING PSIXOLOGIK OMILLARI.Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(3), 54-59.
5. Бозорова,М.,& Турахонова,М.(2021).РОЛЬ ЭТНОПЕДАГОГИКИ В ПРОЦЕССЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ. Энигма, (32), 82-86.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 07.06.2019 yildagi 472-son